

HP BUKHARA
HAND PRINT

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA XXI ASR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING
ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI: 5 E MODEL, YANGI AVLOD DARSLIK LARI
VA XORIJIY TAJRIBALAR



**MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM FAKULTETI
BOSHLANG'ICH TA'LIM KAFEDRASI**

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA XXI ASR
KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING
ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI:
5 E MODEL, YANGI AVLOD DARSLIK LARI
VA XORIJIY TAJRIBALAR**

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

TO'PLAMI

**IEA
TIMSS**

**IEA
PIRLS**

**2025-YIL
21-NOYABR**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM FAKULTETI**

BOSHLANG‘ICH TA’LIM KAFEDRASI

**“BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIDA XXI ASR KO‘NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI: 5 E MODEL, YANGI
AVLOD DARSliklari VA Xorijiy Tajribalar”**

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI

2025-yil, 21-noyabr

Ilmiy-amaliy anjumanning dasturiy qo‘mitasi

B.B. Ma‘murov	–	Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais;
Z.M. Muqimov	–	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais muovini;
G.R. Akramova	–	Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, a‘zo;
M.M. Tilavova	–	Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti dekani, a‘zo;
R.A.Qo‘ldoshev	–	Ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i, a‘zo;
M.J. Saidova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası mudiri, a‘zo;
F.M.Qosimov	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası professori, a‘zo;
Y.Y.Azimov	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası professori, a‘zo;
N.O.Safarova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası professori, a‘zo;
N.B. Adizova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
N.B. Adizova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
G.E.Saidova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
R.X.Jumayev	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
F.N. Abdullayeva	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
S.R.Akramova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
M.N. O‘rinova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;

Ilmiy-amaliy anjumanning tashkiliy qo‘mitasi

Z.M. Muqimov	–	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais;
G.R. Akramova	–	Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, rais muovini;
J.S.Aminov	–	Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, a‘zo;
M.M. Tilavova	–	Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti dekani, a‘zo;
R.A.Qo‘ldoshev	–	Ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i, a‘zo;
M.J. Saidova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası mudiri, a‘zo;
F.M.Qosimov	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası professori, a‘zo;
Y.Y.Azimov	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası professori, a‘zo;
F.S.Safarov	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
S.R.Akramova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
N.B. Adizova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
R.X.Jumayev	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
I.D.Axrоров	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi, a‘zo;
B.N.Yuldashev	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi, a‘zo;
D.N.Xayrullayeva	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi, a‘zo;
Z.I.Usmonova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo;
N.O‘.Xudoyberdiyeva	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo.

To‘plam Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-sonli buyrug‘iga asosan 2025-yilning 21-noyabr kunida **“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari: 5 E modeli, yangi avlod darsliklari va xorijiy tajribalar”** mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas‘ul muharrir:

M.J. Saidova - pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

B.R. Adizov - pedagogika fanlari doktori, professor

G.V. Izbullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. -Toshkent-2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston — maktab ostonasidan boshlanadi." – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
3. Daminov.O.O. Kasbiy pedagogika 2018 yil.
4. Mukhamadovna, T. M., Djamshitovna, K. M., & Narzullayevna, Q. S. (2021). Art as a significant factor of forming world outlook of students. Middle European Scientific Bulletin, 11.
5. Abdullayeva N. Texnologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
6. Fayziyeva N.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatida fanlararo integratsiyaning o'rni. // "Pedagogik ta'lim" ilmiy jurnali. – 2022. – №4. – B. 45–49.
7. Hasanov B. Texnologiya fanini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent: "Ilm ziyo", 2023.
8. Dewey, J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.
9. Bruner, J. The Process of Education. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960.
10. Vygotsky, L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Harvard University Press, 1978.

"BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA KASB-HUNAR KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI"

Jo'rayeva Dilnoz Raxmidinovna

Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil
izlanuvchisi, boshlang'ich ta'lim kafedrasini o'qituvchisi

Fazliddinova Nilufar G'olib qizi

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4 BT-23 guruhi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf texnologiya ta'limi jarayonida o'quvchilarda kasb-hunar kompetensiyalarini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Kasb-hunarga yo'naltirishda integratsion yondashuv, ijodiy faoliyat, o'yinli metodlar va loyiha asosida o'qitishning samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, mehnat tarbiyasi va milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish yo'llari ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: texnologiya darsi, kasb-hunar, kompetensiya, mehnat tarbiyasi, loyiha, integratsiya, ijodiy faoliyat.

Kirish. Boshlang'ich ta'lim – bu o'quvchining shaxs sifatida shakllanishining poydevori bo'lib, unda mehnatga, ijodga va kasb tanlashga bo'lgan qiziqishlar shakllanadi. Texnologiya darslari bu jarayonda alohida o'rin tutadi. Chunki bu fan orqali bolalar nafaqat buyum yasashni, balki mehnatni qadrlashni, jamoada ishlashni va o'z mehnati samarasidan quvonishni o'rganadilar.

Zamonaviy ta'limda kasb-hunar kompetensiyalarini shakllantirish — bu o'quvchining nafaqat bilim olishi, balki uni amaliyotda qo'llay bilish, hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, ijodiy fikrlash va mas'uliyatli bo'lishga o'rgatish demakdir.

Shuning uchun boshlang'ich sinf texnologiya fanini o'qitishda o'qituvchidan nafaqat metodik bilim, balki pedagogik mahorat, ijodkorlik va innovatsion yondashuv talab etiladi.

Asosiy qism. 1. Kasb-hunar kompetensiyasining mazmuni. Kasb-hunar kompetensiyasi — bu o'quvchining kasblar haqidagi tushunchasi, mehnat jarayonlariga ongli munosabati va amaliy faoliyatga tayyorligini ifodalovchi sifatdir. U quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

- **bilimiy** (kasblar, mehnat turlari haqida tushuncha),

- **amaliy** (qo‘l mehnati, oddiy buyum tayyorlash ko‘nikmasi),
- **axloqiy** (mehnatsevarlik, mas‘uliyat, tejamkorlik),
- **ijodiy** (yangilik yaratish, bezash, loyihalash).

Boshlang‘ich sinflarda bu kompetensiyalarni shakllantirish uchun har bir darsda bolalar o‘z faoliyatini real hayot bilan bog‘laydigan mashg‘ulotlarni bajarishlari lozim.

Masalan, “Kasbim – faxrim” mavzusidagi darsda o‘quvchilar turli kasblar haqida suhbatlashadi, rasm chizadi yoki rolli o‘yinlarda qatnashadi. Bu ularning kelajakda kasb tanlashga ongli yondashuvini shakllantiradi.

2. Texnologiya darslarida kasb-hunarga yo‘naltirishning metodik yo‘llari. Texnologiya fanida kasb-hunarga yo‘naltirish bir necha metodlar orqali amalga oshiriladi. Quyidagilar eng samarali usullardir:

a) Amaliy faoliyat asosida o‘qitish. Bu metod o‘quvchilarning bevosita qo‘l mehnati bilan shug‘ullanishi orqali mehnat jarayonini his etish imkonini beradi. Masalan:

- “Tikuvchi ishi” mavzusida rangli matolardan oddiy bezakli buyum tikish;
- “Nonvoylik” mavzusida plastilindan pirojniy yoki non modeli yasash;
- “Duradgor” mavzusida yog‘ochdan maket yaratish.

Bunday mashg‘ulotlar orqali bolalar mehnat jarayonining qadri va mashaqqatini anglaydi.

b) Loyiha asosida o‘qitish. Loyiha metodida o‘quvchilar kichik guruh yoki yakka tartibda topshiriq bajaradilar.

Masalan, “Mening orzu kasbim” mavzusida A3 formatda plakat tayyorlash, rasm va matnlar orqali kasblarni tasvirlash.

Bu o‘quvchilarda rejalashtirish, ijodkorlik, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

c) O‘yinli metodlar. Kasb-hunarga yo‘naltirishda o‘yin shakllari bolalar uchun eng samarali vositadir.

Misol uchun:

- “Kimning kasbini top” (kasb belgilarini aytish orqali topish);
- “Kasblar yarmarkasi” (rol o‘yinlari);
- “Men kimman?” (ish faoliyati asosida taxmin qilish).

Bunday o‘yinlar o‘quvchilarni faol, quvnoq, hamkorlikka tayyor qiladi.

d) Integratsion yondashuv. Kasb-hunar ta‘limi boshqa fanlar bilan bog‘lanib o‘tilganda, o‘quvchilar bilimlarni yaxlit holda o‘zlashtiradi.

Masalan:

- **Matematika** — o‘lchash, hisoblash, shakllarni aniqlash;
- **Tasviriy san‘at** — rang uyg‘unligi, bezaklar;
- **Ona tili** — kasblar haqida hikoya tuzish, topishmoqlar;
- **Tabiatshunoslik** — materiallarning tabiiy xususiyatlarini o‘rganish.

Shunday integratsiya orqali o‘quvchi nazariy bilimni amaliy mehnat bilan uyg‘unlashtiradi.

3. O‘quvchida mehnatsevarlik va kasbga qiziqishni tarbiyalash. Kasb-hunar kompetensiyasining shakllanishi faqat amaliy faoliyat emas, balki tarbiyaviy jarayondir.

O‘qituvchi quyidagilarga e‘tibor qaratishi zarur:

- har bir kasbning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish;
- o‘quvchiga mehnatsevar insonlarga hurmatni singdirish;
- milliy hunarmandchilik an‘analarini o‘rgatish.

Masalan, “Buxoro gilamlari”, “Marg‘ilon ipaklari”, “Rishton kulollari” haqida suhbat o‘tkazish o‘quvchilarda milliy g‘urur va ijodiy qiziqish uyg‘otadi.

4. Kasb-hunarga yo‘naltirilgan darslarning samaradorligi. Bunday darslarning natijasida:

- o‘quvchilar o‘z qiziqishlarini aniqlaydi;
- ijodkorlik va mustaqillik rivojlanadi;
- jamoada ishlash, fikr bildirish, o‘z mehnatini qadrlashga o‘rganiladi;
- hayotiy kompetensiyalar shakllanadi.

Texnologiya darslari shu jihatdan o'quvchilarning kelgusida tanlaydigan kasbga bo'lgan dastlabki qadami bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Kasb-hunar kompetensiyalarini shakllantirish – bu o'quvchini kelajakdagi hayotga tayyorlash demakdir. Texnologiya fani bu borada o'quvchining ijodiy tafakkuri, amaliy mahorati va mehnatsevarlik sifatlarini rivojlantiradi.

Boshlang'ich bosqichda berilgan har bir dars, har bir o'yin, har bir loyiha bola qalbida "mehnat – baxt manbai" degan tushunchani shakllantiradi. Shu bois o'qituvchilar kasb-hunar ta'limiga nafaqat bilim, balki yurakdan mehr bilan yondashishlari zarur.

Adabiyotlar

1. Mavlonova R. (2024). Texnologiya ta'limi metodikasi. — Toshkent: TDPU nashriyoti.
2. Jo'rayev M. (2022). Kasb-hunar ta'limining pedagogik asoslari. — T.: Fan.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. — T.: Ma'naviyat.
4. Saidov U. (2023). Boshlang'ich ta'limda mehnat tarbiyasi.
5. Karimov Sh. (2024). Kasb-hunar ta'limida integratsion yondashuv.
6. Inkorporatsion yondashuvlar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish. J.D.Rahmiddinova.
7. Jo'rayeva Dilnoz Rahmidinova, Texnologiya darslarida o'quvchilarda axborot kompetentligini oshirishda inkorporatsiyadan foydalanishning nazariy asoslari., 2024, Журнал, Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar.
8. J.D.Rahmiddinova, Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida fanlararo inkorporatsion bog'liqlikni ta'minlashning nazariy asoslari образование и инновационные исследования (2024 год № 2), 117
9. Jo'rayeva Dilnoz Raxmidinova, Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida integratsiya va inkorporatsiya, 2025, Журнал "PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA"

QUDDUS MUHAMMADIY IJODIDA FOLKLORIZMLARNING NAMOYON BO'LISHI

N.O'.Xudoyberdiyeva

BuxDPI Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada folklorizm hodisasi, uning mazmun-mohiyati hamda xalq og'zaki ijodi namunalarining zamonaviy madaniyatda qayta namoyon bo'lish jarayonlari tahlil etiladi. Shuningdek, folklorizmning turlari va ularning milliy madaniyatni boyitishdagi ahamiyati yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: folklor, folklorizm, og'zaki ijod, an'ana, madaniyat, modernizatsiya, xalq merosi, bolalar adabiyoti.

Har bir xalqning madaniyati, avvalo, uning og'zaki ijod namunalari — ertak, doston, maqol, qo'shiq va afsonalar orqali namoyon bo'ladi. Folklor xalq ruhiyatining ifodasi, milliy tafakkurning yodgorligidir.

Folklorizm xalq ijodi an'alarining yangi tarixiy sharoitda qayta tiklanishi, zamonaviy san'at, adabiyot va ommaviy madaniyatda ishlatilish hodisasidir. U xalq merosining davomiyligini ta'minlaydi va milliy o'zlikni anglashga xizmat qiladi.

Folklorizm — bu folklor unsurlarining yangi sharoitda, ya'ni zamonaviy hayotda qayta qo'llanishi, qayta talqin qilinishi va yangi badiiy shaklda namoyon bo'lishidir. Ushbu hodisa natijasida xalq ijodi namunalarining g'oyaviy va estetik qiymati saqlanib qoladi, lekin ular zamon ruhiga moslashtiriladi.

Folklorizm jarayoni ko'plab sohalarda — adabiyotda, sahna san'atida, musiqada, kinoda, televideniya va hatto reklama hamda moda sohasida ham kuzatiladi.

Bolalar adabiyoti xalqning madaniy merosi, milliy qadriyatlari va ma'naviy boyliklarini yosh avlodga yetkazuvchi eng muhim vositalardan biridir. Ushbu adabiyot tarmog'ida xalq